

QASHQADARYO VOHASI TIPIK BO'Z TUPROQLARINING HOZIRGI UNUMDORLIK HOLATI

Razzaqova Gulixol Yusupovna

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktranti

razzaqovagulixol@gmail.com

+998908705676

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20287445>

Annotatsiya: Ushbu tezisda Qashqadaryo vohasi tipik boz tuproqlarining hozirgi holati o'rganildi. Tuproqlarning asosiy agrokimyoviy ko'rsatkichlari (gumus, NPK, pH) tahlil qilindi. Natijalar unumdorlikning pasayish tendensiyasini ko'rsatdi. Tuproq holatini yaxshilash uchun resurs tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish muhimligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: tipik bo'z tuproqlar, unumdorlik, agrokimyoviy ko'rsatkichlar, Qashqadaryo vohasi.

Annotation: this thesis studies the current fertility status of typical gray soils in the Kashkadarya oasis. The main agrochemical properties of soils, including humus, NPK content and pH level were analyzed. The results show a tendency of decreasing soil fertility. the importance of implementing resource-saving agricultural technologies to improve soil conditions is emphasized.

Key words: typical gray soils, soil fertility, agrochemical properties, Kashkadarya oasis.

Аннотация: в данное тезисной работе изученно современно состояние плодородия типичных сероземных почва Кашкадарьинсково оазиса. Проведен анализ основных агрохимических показателей почв, включая содержание гумуса, НПК и уровень рН. Результаты показывают тенденцию к снижению плодородия почв. Подчеркивается важность внедрения ресурсоберегающих агротехнологий для улучшения состояния почв.

Ключевые слова: типичные сероземы, плодородие почв, агрохимические показатели, Кашкадарьинский оазис.

Kirish: Qashqadaryo vohasining tipik bo'z tuproqlari mintaqada paxta va g'alla yetishtirishda asosiy tuproq turi hisoblanadi. Ularning hozirgi unumdorlik holati gumus zahirasi, harakatchan azot, fosfor va kaliy miqdori hamda sho'rlanish darajasi bilan belgilanadi. So'nggi yillarda sug'orish va agrotexnik ta'sirlar natijasida ayrim maydonlarda unumdorlik ko'rsatkichlari pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bois bu tuproqlarning hozirgi holatini ilmiy asosda baholash dolzard masaladir.

Asosiy qism: Vohaning lalmi tipik bo'z tuproqlari arid iqlim sharoitida shakllangan bo'lib, ularning unumdorligi asosan gumus zaxirasi, ozuqa elementlarining harakatchan shakllari hamda namlik rejimi bilan belgilanadi. Haydalma (0-30sm) qatlamda gumus miqdori odatda 0,8-1,2% atrofida bo'lib, past qatlamlarda keskin kamayadi. Bu esa organik moddalarning kamligi va biologik jarayonlarning sustligini ko'rsatadi. Harakatchan azot miqdori ko'pincha past darajada, fosfor bilan ta'minlanaganlik o'rtacha yoki past, almashinuvchan kaliy miqdori esa nisbatan yetarli holatda kuzatiladi. Tuproq reaksiyasi (pH) neytralga yaqin yoki biroz ishqoriy bo'lib, karbonatlar mavjudligini ko'rsatadi. Lalmi sharoitda namlik tanqisligi tufayli mikrobiologik faollik mavsumiy xarakterga ega bo'lib, ozuqa elementlarining mineralizatsiyalashuvi sekin kechadi. Natijada tipik bo'z tuproqlarning hozirgi unumdorlik darajasi tabiiy-iqlim omillariga kuchli bog'liq bo'lib, ularni saqlash va oshirish uchun agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda qo'llash zarur hisoblanadi.

Xulosa: Hududning tipik bo'z tuproqlari unumdorligi gumus, azot-fosfor miqdoripastligi va namlik tanqisligi bilan cheklanadi, kaliy bilan ta'minlanganligi esa nisbatan barqaror. Tuproqning hozirgi holati tabiiy-iqlim omillariga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu sababli unumdorlikni oshirish uchun organik o'g'itlar va tuproqni muhofaza qiluvchi agrotexnik tadbirlarni qo'llash lozim.

References:

1. Abduraxmonov N.Y. Sug'oriladigan va lalmi tuproqlar unumdorligini baholashning ilmiy asoslari // Biologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati – Tashkent, 2019yil 69 b.
2. Ochilov S.Q. Qashqadaryo vohasi sug'oriladigan tuproqlarining kimyoviy xossalari, gumusli holati va unumdorligini oshirish yo'llari // Biologiya fanlari falsafa doktori(PhD) dissertatsiya avtoreferati- F'arg'ona 2019yil 43b.
3. Diyorova M.X. Qashqadaryo vohasi tuproqlarining unumdorligi va ekologiyasi Monografiya Fan bulog'i nashriyoti, 2023yil 52-54b.
4. Ковда В.А. проблемы защиты почвенного покрова и биосферы планеты. Пуццино, 1989-155с.